



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

QASHQADARYO VILOYATINING TURIZM SALOHIYATI VA UNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Iroda Shomurodova Chori qizi

Toshkent Xalqaro Kimyo Universiteti talabasi:

Annotatsiya: *Ushbu tezisda Qashqadaryo viloyatining bugungi kundagi turizm salohiyati va uning Respublikamiz turizimini rivojlantirishdagi o'рни haqida ma'lumotlar o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *turizm qishloqlari, gastronomik turizm, eko turizm, ekstrimal turizm, mehmon uylari, Oqsaroy, Amir Temur.*

O'zbekiston turizm sanoatida Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xiva, Termiz singari shaharlar qatorida turuvchi Qarshi va Shahrisabz shaharlari Qashqadaryo viloyatining gultoji hisoblanadi.

Qarshi shahri qadimiy va ulug'vor shahar bo'lib o'zida ko'plab tarixiy obida va madrasalarni jamlagan: shular qatorida Qashqadaryo ko'prigi, "Imom Mo'yin an-Nasafiy majmuasi" Qashqadaryo vohasi o'zining madaniy tarixi bilan mashhur. 1990-yillargacha Qashqadaryo hududida paleolit (tosh asri) davrida odamzodning yashaganligi haqida ashyoviy dalillar kam edi. Faqatgina Tanxozdaryo vodiysidan topilgan chaqmoqtoshdan yasalgan ayrim buyumlar, Taxtaqoracha dovonida Takalisoy bo'yidagi g'ordan arxeolog D.N.Lev tomonidan mustye davriga oid bir nechta tosh buyum topilganligi Qashqadaryo vodiysida tosh davri odamlari yashaganligidan dalolat berar edi.

1990-yillarda arxeologlardan R. X. Sulaymonov, A.S. Sa'dullayevlar yuqori Qashqadaryodagi Oyoqchisoy, Quruqsoy vodiylarini o'rganib paleolit davriga oid ashyoviy dalillarni topdilar. Siylontoshda tosh asrining so'nggi davriga oid topilmalar aniqlandi.

Vohada miloddan avvalgi X-VIII asrlar, jez va temir asrlarga oid Sangirtepa, Yerqo'rg'on yodgorliklari topiddi. Miloddan avvalgi 7-6-asrlarda Qashqadaryo vodiysida dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi ko'plab aholi istiqomat qilgan. Kesh, Naxshab shahrilari paydo bo'lib rivojlangan. qadimiy Baqtriya davlati tarkibiga Qashqadaryo vohasining bir qismi ham kirgan.

Miloddan avvalgi 329-yilda Aleksandr Makedoniyalik qo'shinlari Navtaka (Qashqadaryo) viloyatini bosib olgan. Qashqadaryo bosqinchilarga qarshi ko'tarilgan Spitamen qo'zg'olonining markazlaridan biri bo'lgan. Miloddan avvalgi 3-2-asrlarda Qashqadaryo vohasi Salavkiylar, undan keyin Yunon Baqgriya davlati tarkibiga kirdi. 468-yilda kushonlar avlodidan bo'lgan ko'chmanchi chorvador toxarlar Kidar rahbarligida sharqdan Amudaryo havzasiga kirib kelib Naxshabni o'zlariga vaqtincha qarorgoh qilib turdilar.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Qashqadaryoda VII-VIII asrlarda iqtisodiy hayot rivojlangan. Bir necha-yillar davomida Sug'd Kesh podsholari tomonidan idora qilingan. Kesh podshosi Shasheppi (Shishpar) davrida zarb qilingan tanga pulda „Ixshid Shishpar“ degan yozuv bo'lgan. Arablar qo'shini 700-yilda ilk bor Qashqadaryoga bostirib kelib, Naxshab va Kesh shahrilarini va ular atrofidagi qishloqlarni qo'lga kiritdilar. Qutayba ibn Muslim 710-yilda Kesh va Naxshabni qayta fath etdi. Ammo, Qarshi, Kesh va Naxshab (Nasaf)da yana arablarga qarshi norozilik harakatlari boshlanadi. Kesh asosiy markazlaridan bo'lgan Muqanna qo'zg'oloni butun Movarounnahrda tarqaldi. IX-X asrlarda Qashqadaryoda iqtisodiy-ijtimoiy hayot, fan va madaniyat yana rivojlandi. Kesh „Qubbat ulilm val adab“ nomiga sazovor bo'ddi.

Mo'g'ul bosqinchilari 1220-yil yozida Qashqadaryoga bostirib kelib Naxshab, Kesh, G'uzor shahrilari va qishloqlarini vayron qildilar. Mo'g'ullar o'troqlikka o'tgandan so'nggina (XIV asrda) Kepakxon (1318—1326) qurdirgan saroy yaqinida yangi shahar — Qarshi shahriga asos solindi. 14-15-asrlarda Temur va Ulug'bek davrlarida Shahrisabz bir qancha monumental binolar — saroy, masjid va maqbaralar va boshqalar qurildi. Shahrisabz vohaning yetakchi shahriga aylandi. Ashtarxoniyalar davrida Qarshi, Shahrisabzda Buxoro xonligidan mustaqil bo'lish harakati kuchaydi. Mang'itiyalar davrida Qarshi taxt vorisi hokim bo'ladigan viloyatga aylandi.

Qashqadaryo ko'prigi Qarshi shahridagi qadimiy ko'prik ayni paytda "Amir Temur ko'prigi" deya nomlanadi. Manbalarga ko'ra, u 700 yillik tarixga ega bo'lib, qadimda Qashqadaryo daryosi qirg'oqlarini birlashtirgan hamda xalqaro iqtisodiy va ijtimoiy aloqa vositasi bo'lgan. Bir vaqtlar ushbu tarixiy ko'prik ustidan Eron va Hindistonni Yevropa bilan bog'lovchi karvon yo'llari o'tgan. Shu bois bu voha asrlar davomida gullab-yashnagan. Olim va sayyoh German Vamberining yozishicha, 1860-yillarda Qarshi shahrida 10 ta karvonsaroy, katta bozor, shahar aholisi dam oladigan bog' bo'lgan. U bunday bog'ni boshqa yurtlarda uchratmaganini alohida qayd etgan. O'rta Osiyoning qadimgi inshootlaridan hisoblangan ko'prik asosan pishiq g'isht va mustahkamlovchi qorishmalardan iborat bo'lgan, unda 12 ta pillapoya va 14 ta ravoq ko'rinib turgan. Inshoot juda puxta, mustahkam qurilgan bo'lib, o'zbek me'morligidagi muhandislik sohasida dadil qadam hisoblanadi. Tarixiy ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, Qashqadaryo ko'prigi ustidan makedoniyalik Iskandar qo'shinlari, aravalari, arablar, Chingizxon, Amir Temur, Bobur, Shayboyniyxon suvoriylari ham o'tgan.

"Imom Mo'yin an-Nasafiy majmuasi" Qashqadaryo zaminining ulug' allomalardan, dunyo fanlari rivojlanishiga o'zining salmoqli hissasini qo'shgan, ayniqsa Movarounnahrning fiqh (islom huquqshunoslik) ilmi miqyosidagi katta o'rin tutgan Motrudiya kalom maktabini atoqli namoyandalaridan biri buyuk olimlar oilasiga mansub yirik faqih Abul Mu'yin an-Nasafiy 1027-yil Nasaf shahrida tug'ilgan. Abul Mu'yin uzoq vaqt Buxoro va Samarqandda yashab ijod etgan.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Fathulloh Xulayf "Abul Mu'iyin Moturudiy kalom maktabini himoya qilib turuvchi buyuk shaxs" deb tariflaydi. "Vaqf" xayriya jamoat fondi Qashqadaryo bo'limi

Kesh shahri (Shahrissabz)

SHahrissabz shahrini buyuk bobokolonimiz Amir Temur nomi va uning buyuk saltanati nomisiz tasavvur etib bo'lmaydi . Shahrissabz shahrida tug'lib butun dunyoga tanilgan va ulkan saltanat yaratgan. Shahrissabz shahrida Temur va temuriylar tomonidan barpo etilgan.

- ✓ qadimgi Oqsaroyning xarobalari,
- ✓ Ko'k gumbaz masjidi,
- ✓ Dor ut-Tilovat yodgorlik majmuasi,
- ✓ Dorus-Saodat, Shamsad-Din Kulyal, Gumbazi-Seyidon maqbaralari.

Shahrissabz tumanida tarixiy obidalar balki zamonaviy tabiiy turistik manzillar mavjud:

Suvtushar sharsharasi Shahrissabz tumani Suvtushar sharsharasi Suvtushar soyning boshlanish qismida, dengiz sathidan 2100 m. Balandlikda joylashgan. Sharsharaning balandligi 84m. Bo'lib, kata qoya toshlar va archazorlar orasida joylashganligi bilan tabiat shaydolarini o'ziga maftun etadi. Ushbu sharshara Hisortog' tizmasining 4000 m. Balandlikdagi Osmontalash korli qoyalardan paydo bo'lgan suvlar hisobiga hosil bo'ladi. O'ziga xos ajib bir kuyni chalib, sohibjamolning uzun yoyilgan kokillarini eslatuvchi suvning shiddatli oqimi ushbu sharshara suvini ko'pirtirib, oppoq holatga olib keladi va shuning uchun mahalliy xalq orasida gohida uni Suttushar sharsharasi ham, deb ataydilar. Hisor davlat

Qashqadaryo viloyati ko'xna tarixi, qadimiy madaniyat yodgorliklari bilan mashhur. Viloyatdan buyuk olimlar, adib va shoirlar, mashhur san'atkorlar, baxshilar, xalq artistlari, rassomlar yetishib chiqqan.

Qashqadaryo viloyati da 2004/05 o'quv-yilida 1094 umumiy ta'lim maktabi, shu jumladan 34 ixtisoslashgan, 4 maxsus maktab, 3 gimnaziya va boshqalarda 620 mingdan ziyod o'quvchi ta'lim oldi. Viloyatda 62 kasb-hunar kolleji (49 ming talaba), 4 akademik litsey (2 ming o'quvchi), 18 bolalar musiqa maktabi (1,7 ming o'quvchi), 3 mehribonlik uyi, 2 oliy o'quv yurti (Qarshi universiteti, Qarshi muhandislikiqtisodiyot instituti; 10,4 mingga yaqin talaba) bor. Qashqadaryo o'lkashunoslik muzeyi (Qarshi shahri), Amir Temur muzeyi (Shahrissabz shahri da), viloyat musiqali drama teatri, viloyat qo'g'irchoq teatri, „Eski masjid“, „Muloqot“ teatr studiyalari, „O'zbekraqs“, „O'zbeknavo“ning viloyat bo'limlari, ashula va raqs direksiyasi faoliyat ko'rsatadi. 464 jamoat kutubxonasi (kitob fondi 3930 ming nusxa), 148 klub muassasasi, 6 madaniyat va istirohat bog'i bor. jamoa va boshqalar madaniy muassasalar ishlab turibdi.

Qashqadaryo viloyatida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arboblari: Rahimjon 16 ashula va raqs xalq ansambli, 2 folklor etnografik xalq ansambli, 373



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

badiy havaskorlik Komiljonov, Sadriddin Salimov, Isoq To'rayev; O'zbekiston xalq hofizi O'lmas Saidjonov; O'zbekiston xalq baxshilari: Shomurod baxshi Tog'ayev, Qahhor baxshi Rahimov; O'zbekiston xalq artistlari:

Shahrisabzda nimani ko'rishingiz mumkin:

- ✓ qadimgi Oqsaroyning xarobalari,
- ✓ Ko'k gumbaz masjidi,
- ✓ Dor ut-Tilovat yodgorlik majmuasi,
- ✓ Dorus-Saodat, Shamsad-Din Kulyal, Gumbazi-Seyidon maqbaralari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yangiboyev M . Qashqadaryo viloyati geografiyasi, Qarshi 1993;
2. Suleymanova R.X, Drevniy Naxshab, T.,2000
3. Shahrisabz ming-yillar merosi, T., 2002
4. Hakimov N., Jo'raqulov O., Shahrisabz tarixi, Qarshi 2001.